



## HAKAMLIK SUDLARI: ALOHIDA XUSUSIYAT HAMDA TARAFLAR UCHUN AFZALLIKLAR

Orzubek Musayev Eshberdi o'g'li

“Ravnaq-bank” AJ “Kredit amaliyotlari operatsiyasi  
va muammoli aktivlar” departamenti yetakchi mutaxassisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5580201>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 05-oktabr 2021

Ma'qullandi: 10- oktabr 2021

Chop etildi: 15- oktabr 2021

### KALIT SO'ZLAR

*hakamlik sudlari,  
hakamlik kelishuvi,  
nizolashayotgan taraflar,  
davlat sudlari.*

### ANNOTATSIYA

*Bugungi kunda fuqarolik jamiyati turli institutlarining rivojlanishini o'rganish tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyati institutlari ko'payishi barobarida tadqiqot obyektlarining soni ham sezilarli o'smoqda.*

Fuqarolik jamiyatining rivojlanishida hakamlik sudlari ham muhim rol o'ynaydi. Qonunchilikdagi ta'rifga ko'ra, hakamlik sudi (doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudi yoki muvaqqat hakamlik sudi) – fuqarolik-huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolarni, shu jumladan, tadbirkorlik subyektlari o'rtasida vujudga keluvchi iqtisodiy nizolarni hal etuvchi nodavlat organ.<sup>1</sup>

Hakamlik sudlari sohasidagi mutaxassislar nuqtayi nazaridan esa hakamlik sudlari fuqarolik jamiyatidagi o'zini o'zi boshqarish instituti bo'lib, huquqni qo'llash faoliyatini (fuqarolik nizolarini hal qilishda) tomonlar o'z xohish-

irodasini bildirish asosida amalga oshiradi (hakamlik kelishuvi). Bundan kelib chiqadiki, bugungi kunda hakamlik sudi nizolarni hal qilishning alternativ usullaridan biri hisoblanadi.

Davlatning rejalashtirilgan iqtisodiy modeldan erkin tadbirkorlikka o'tishi bilan hakamlik sudlarining tijorat nizolarini adliya organlari ishtirokisiz hal qilishi alohida zarurat kasb etdi.

Turli nuqtayi nazarlarga ko'ra, fuqarolik jamiyati rivojlanmagan mamlakatda to'liq ishlaydigan hakamlik sudlari ham rivojlana olmaydi. Shu sababli aytish mumkinki, hakamlik sudlarining rivojlanishi, shuningdek, ularning

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasining “Hakamlik sudlari to'g'risida”gi Qonuni (<https://lex.uz/docs/-1072079>)



muvaffaqiyatli faoliyati O'zbekiston fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga, hozirda faoliyat ko'rsatayotgan hakamlik sudlarining samarali faoliyati hakamlik ishlarini yuritishning butun tizimining obro'sini mustahkamlaydi.

Xo'sh, nizo hal qilish hakamlik sudlariga topshirilganda tomonlar uchun qanday afzalliklar bor?

Birinchidan, bu hakamlik sudini tanlash imkoniyati. Tomonlar fuqaroning yashash joyi, yuridik shaxs yoki ko'chmas mulkning joylashuvi bilan bog'liq emas. Bunday holda, hakamlik muhokamasi uning joylashgan joyida o'tkazilishi shart emas. Zarur bo'lgan hollarda, hakamlik sudining sayyor kengashi nizoni O'zbekistonning istalgan joyida yoki chet davlat hududida ko'rib chiqishi mumkin.

Keyingisi – bu doimiy hakamlik sudi tarkibidan ma'lum bir hakamni (yoki hakamlarni) tanlash imkoniyati. Tomonlar ishonchliroq bo'lgan va bilim-ko'nikmasi yuzaga kelgan nizo mohiyatiga mos keladigan hakamni tanlash huquqiga ega.

Shunisi xarakterliki, tomonlar hakamlik sudi bilan kelishilgan holda, nafaqat nizoni ko'rib chiqish joyini, balki nizoni ko'rib chiqish vaqtini ham tanlash huquqiga ega. Bunda ishni ko'rib chiqishning tezligi ham afzallik hisoblanadi. Hakamlik sudlari jarayonni ataylab kechiktirishdan manfaatdor emas.

Muhim afzallik – bu jarayonning yopiqligi (tashqi bosim va keraksiz oshkoralikning mavjud emasligi). Ya'ni hakamlik sudida nizoni ko'rib chiqish maxfiylik asosida bo'lib, tijorat sirlarining

oshkor etilmasligi qonun bilan kafolatlanadi.

Albatta, bunda hakamlarning to'la mas'uliyatini ham eslab o'tish kerak. Hech kimga sir emaski, hakamlar o'z faoliyati uchun tegishli haq oladilar, bu to'g'ridan to'g'ri sudya ko'rib chiqqan ishlar soni va ularning hal qilinish sifatiga bog'liq bo'lib, uning obro'siga ham ta'sir qiladi. Bularning barchasi sudyalarning xolisligi uchun qo'shimcha kafolat beradi.

Shuningdek, hakamlik sudida ishni ko'rib chiqish xarajatlari davlat sudlariga qaraganda ancha past bo'ladi va bu ham ayni turdagi sudlarga bo'lgan talabni oshiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, hozirda hakamlik sudlari nizolarni hal qilishda muqobil imkoniyatlarga ega ekanligi namoyon bo'lmoqda. Ularda nizolarni ko'rib chiqishdagi tezkorlik hamda kamxarjlik fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarini tanlov asosida, ixtiyoriylik tarzida hakamlik sudlariga murojaat etishini kengaytirmoqda. Bir so'z bilan aytganda, nizolashayotgan taraflar davlat sudlaridan ko'ra, hakamlik sudlarida o'z muammolarini hal etishni afzal ko'rmoqdalar.

Xorijiy amaliyotdan kelib chiqib oladigan bo'lsak, birgina Singapur davlatida 2020-yilda hakamlik sudlarida jami nizolarning 95 foizi ko'rilgan. Davlat sudlarida esa nizolarning faqatgina 5 foizi ko'rilgan.

Demak, istiqbolda hakamlik sudlari fuqarolar va yuridik shaxslar o'rtasidagi mojaro va nizolarni zamonaviy usullar bilan hal etishda asosiy o'rin egallaydi. Shu bois, bugungi kundagi eng dolzarb vazifa –



hakamlik sudlarida nizolarni ko'rish tartibining, muhokama jarayonlari va qaror qabul qilishning huquqiy mexanizmlarini izchil takomillashtirib borishdan iborat.

**References:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonuni.